



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/8

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**



| | |
|--|-----|
| Turdiyeva N. M. Oliy o'quv yurtlari talabalarining madaniyatlararo kompetentsiyasini rivojlantirishda maxsus kommunikativ interaktiv usullarning roli. | 251 |
| Tursunov X. O. Turli yoshga mansub voleybolchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda sakrash sifatlarini rivojlanish sur'ati va ularni an'anaviy testlar yordamida baholash natijalari | 255 |
| Xamrayeva I. S. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab o'qish darslarida ko'rgazmali vositalardan foydalanish | 261 |
| Xasanov I. T. Kurashchilarni texnik harakatlarni takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari | 264 |
| Xodjiyeva M. M. Masofadan o'qitishda google platformasining imkoniyatlari | 268 |
| Xolov Sh. Globllashuv jarayonida jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyot o'rtasidagi integratsion hamkorlikning rivojlanishi | 273 |
| Xudoykulov R. Q. Talabalarda muhandislik kasbiga texnologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik talablari va shartlari | 276 |
| Yusufzoda Sh. Y. Grafik malakalarni mustahkamlashga doir ayrim mulohazalar | 279 |
| SHaripova H. A. "STEAM" texnologiyasini maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalar bilan qo'llash | 287 |
| Ganiyev Sh. R. Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etish muammolari | 291 |
| Shomirzaev M. X. Maktab o'quvchilarini xalq hunarmandchiligi kasblariga yo'naltirish texnologiyasi | 294 |
| Шойимова Ш.С. Коммуникативная компетентность преподавателей вузов как фактор эффективности образовательного процесса | 298 |
| 19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI | |
| Abdullaeva A.R. Oila mustahkamligiga nikoh motivining ta'siri. | 302 |
| Avlayev O. U. Shaxs kamolotida sotsial intellektni rivojlantirishning tetra aspektli modeli | 306 |
| Быстрова Ю. А., Лапп Е. А. Психологическое сопровождение спортсменов с особыми образовательными потребностями во время участия на соревнованиях по спортивным балным танцам | 312 |
| G'aniyeva N.O. Shaxs o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish muammosi | 316 |
| Ganjiyev F. F. O'smirlik davrida kechadigan ijtimoiy psixologik mexanizimlari | 320 |
| Hamroeva H. B. Favqulodda vaziyatlarga aholini ruhiy tayyorlash masalasi | 324 |
| Jumabaev T. J. Sportchilarni musobqaga tayyorlashning psixologik xususiyatlari | 329 |
| Jumayev N. Z. O'quvchilar iste'dodini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari | 333 |
| Nasimdjanova M.M. Akkulturationsi begona madaniyatni o'zlashtirish jarayoni sifatida | 340 |
| Nuralieva D. M. Geteromillatli oilalarda tug'ilgan shaxslarda etnik identiklik namoyon bo'lishining empirik tadqiq etilishi | 344 |
| Nuraliyeva D. M. Shaxsda etnik identiklikning shakllanishida oilaning o'rni | 347 |
| Olimov L. Ya. Sud psixolog eksperti kompetentligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari | 351 |
| Rajabov M. Shaxslararo munosabatlarda manipulyatsiya va uni o'rganilishi manipulyatsiya | 359 |
| Sayfullayev E. A. Ekstremal omillarning inson psixikasiga ta'siri | 363 |
| Sa'dullayeva H. X. Rasmiy va norasmiy guruhlar tarkibidagi o'smirlarga psixologik xizmat ko'rsatish muammolari | 367 |
| Sultanova S. M. Psixologiyada xorij olimlari tomonidan aybdorlik hissining o'rganilishi | 369 |
| Toshpo'latova N. A. Sharq olimlarining qarashlarida din psixologiyasi | 373 |
| Ulug'ova Sh. M. Kasbiy faoliyatga moslashuv mexanizmlari | 376 |
| Усманова М. Н. Эмпирическое исследование коммуникативной компетентности педагогов | 379 |
| Uzakova Y. Yu. Umumta'lim maktablari o'qituvchilarida psixologik muhofaza imkoniyatlarini shakllantirish | 387 |
| Хайдаров Ш. Ш. Педагого-психологические факторы психологического здоровья работников – профессионалов занятых в технических сферах | 390 |
| Xolmatov M. A. Talabalarda diniy bag'rikenglik shakllanishining diagnostika tizimi | 394 |
| Яхяева У. Ш. Математика ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ўқувчилар креатив тафаккурини шакллантиришдаги ўрни ва аҳамияти | 397 |
| Shamshetova A.K. Ekologik muammolarning ilmiy nazariy asoslari | 402 |
| Шониязова И. М. Аффiliation мотиви ижтимоий - психологик феномен сифатида | 405 |



O'SMIRLIK DAVRIDA KECHADIGAN IJTIMOYIY PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI

*Ganjiyev Feruz Furqatovich Buxoro davlat universiteti
psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrida kechadigan ijtimoiy psixologik mexanizmlarning nazariy metodologik asoslari tadqiqot maqsadiga mos ravishda tadqiq etilgan. Maqola bugungi kun ijtimoiy psixologiya, yosh davrlar psixologiya fanlarining amaliy-tadbiqiy nazariy yo'nalishlari va istiqbollari haqida yanada chuqurroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Tayanch so'zlar: ommaviy axborot, o'zidan qoniqmaslik, axloqiy talablar, emansipatsiya, krizis, xulq-atvor, qaysarlik, agressivlik.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ, ПРОТЕКАЮЩИЕ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

*Гаджиев Феруз фургатович Бухарский государственный университет
доцент кафедры психологии и социологии (PhD)*

Аннотация: В этой статье рассматриваются теоретические методологические основы социально-психологических механизмов, протекающих в подростковом возрасте, в соответствии с целью исследования. Статья социальная психология сегодня, возрастные периоды позволяет сформировать более глубокое представление о прикладных теоретических направлениях и перспективах психологических наук.

Ключевые слова: средства массовой информации, неудовлетворенность собой, моральные требования, эмансипация, кризис, поведение, упрямство, агрессивность.

SOCIAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF ADOLESCENCE

*Ganjiyev Feruz Furqatovich Bukhara State University
associate professor of the Department of psychology and sociology (PhD)*

Annotation: this article explores the theoretical methodological foundations of adolescent social psychological mechanisms in accordance with the purpose of the study. The article allows you to create a deeper picture of the practical and applied theoretical directions and prospects of the subjects of Social Psychology Today, psychology of young Times.

Key words: publicity, dissatisfaction with oneself, moral demands, Emancipation, crisis, behavior, stubbornness, aggressiveness.

Kirish. Dunyo miqyosida o'smirlarda tajovuzkor xulq namoyon bo'lishining diagnostikasi va korreksiyasini amalga oshirishning psixologik usullarini takomillashtirish hamda xalqaro baholash dasturlarini keng joriy etish dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi paytda o'smirlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga e'tiborni kuchaytirish mamlakat taraqqiyoti, yurt kelajagi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda so'nggi yillarda mamlakatimizda ma'nan yetuk, jismonan sog'lom yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, izlanish va iste'dodini qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida ham Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning chuqur bilim olishi va iste'dodini keng namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratildi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

Asosiy qism: Hozirgi davrda yosh avlodni voyaga yetkazishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi. Turg'unlik yillaridagi so'z bilan ishning nomuvofiqligi», axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar o'smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur. O'smirlar muammosiga e'tiborni

kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari: 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani; 2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani; 3) o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi; 4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani; 5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi; 6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani; 7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayonida sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o'quvchi bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullarini o'smir qoniqtirmay qo'yadi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l-yo'riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. O'smirlarning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli ob'ektiv va sub'ektiv omillarga ega bo'lishi kerak. O'smirda shaxsiy nuqtai nazarining vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tqazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, nizolar kelib chiqadi.

O'smirlik davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo'ladi. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtog'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smirga ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir qiladimi - bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog'liq.

Ayrim pedagoglar o'smirlik davri inqirozi to'g'risida kuyinib gapiradilar, ba'zi illatiami tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Bu masalaga to'g'ri yondashish ayrim ilmiy. tadqiqotlarda asoslab berilgan va o'smirlik davri inqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko'ra, kattalar bilan o'smirlar muomalasining inqirozi haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi, deb xulosa chiqarilgan.

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai nazar, pozitsiya, o'zligini anglash, baholash va hokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. Kichik maktabyoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsining tarkib topishida axloq o'ziga xos, ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol o'ynaydi. Umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayoni, o'quvchidagi ishonch, haqida, nuqtai nazarining qarama-qarshiliklariga duch keladi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o'smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan bo'ladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalari egallash. kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada favqulodda holatlarga katta yoshdagi odamlarining tutgan yo'li va uslubini baholash ko'nikmasi tarkib topa boshlaydi. O'smir xulq-atvorini baholashda (rag'batlantirish yoki jazolashda) kattalarning qat'iyatliligi, prinsipiialligi sinchkov o'quvchi tomonidan tahlil qilinadi va qo'llangan tadbirning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi yana bir marta tekshiriladi.

Shuning uchun rag'batlantirish va jazolash usullari oqilona, o'z vaqtida qo'llanishi kerak.

Psixologik adabiyotlarda mehnat bilan jazolash o'smir psixologiyasida keskin o'zgarish yasashi ifodalangan. Ma'lumki, hamma o'quvchilarga mehnatning qahramonlik, yaratuvchilik ekanligi uqtirib kelinadi. Favqulodda mehnatdan jazo sifatida foydalanish ularga mutlaqo yomon ta'sir etadi. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, mehribonlik, dilkashlik, adolatlilik kabi ma'naviy, axloqiy tushunchalari to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallashi natijasida barqaror e'tiqod va ilmiy dunyoqarash, tarkib topadi, shular zamirida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. O'smirlarning ideallari, negizida orzu, maqsad va ularni ro'yobga chiqarish rejaları namoyon bo'la boshlaydi. Muayyan kasbga mayl va qiziqish tug'iladi. Orzu-istaklar rang-barangligi bilan bir-biridan keskin ajralib turadi. O'smirlar mulohazasini tadqiq qilish ularda ahloqiy tushunchalar baravar tarkib topmasligini ko'rsatdi.

A.I.Maliovanov o'smirlarni to'rtta guruhga ajratadi:

- 1) xatti-harakatda o'zlari anglagan, ijobiy qoidalarga tayanib ish tutadigan, so'zi bilan ishi mos o'smirlar;
- 2) axloqiy tushunchalari qiliqlariga mos keladigan o'smirlar;
- 3) xatti-harakatlari axloqiy normalar haqidagi bilimlari bilan ajralib turadigan shu bilimlarga mos harakat qilmaydigan o'smirlar;
- 4) o'zlari biladigan axloqiy talablar bilan, kundalik xulq-atvorning aloqasini tushunmaydigan o'smirlar.

O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat - voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida, xulq-atvorining tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi. Unda g'ashga tegadigan rahbarlikdan, o'rinsiz homiylikdan, ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan xoli bo'lish istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalar paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlari o'zgartirishgina kattalar bilan o'smirlar orasidagi "anglashilmovchilik g'ovi"ni yo'qotadi. O'smirlar bilan munosabatda ularning mustaqilligi, faolligi, tashabbuskorligi, o'zini boshqarishini hisobga olib, ortiqcha homiylik, g'amxo'rlik qilmaslik ijobiy samaralar beradi. O'smirlarning o'rtoqlik va do'stlik tuyg'ulari o'zaro munosabatlarini o'rgangan I.V.Straxov, ularning o'zaro munosabatlarini uchta shaklga: ulfatchilik, olrtoqlik va do'stlikka bo'ladi. Har bir yuksak tuyg'uni psixologik jihatdan ta'riflab, ularning rivojlanishini bayon qiladi, yuksak, insoniy tuyg'ularning shakllanish sur'ati, barqarorligi o'g'li bolalar bilan qizlarda birmuncha farqlanishini ta'kidlaydi. O'smirlarda ijtimoiy muhitga nisbatan bo'lgan deformatsiyalashuvning yuzaga kelishi va ularda ijtimoiy pozisiyaning mavjud bo'lmashligi yoki tusatdan yo'qolishligi (maktabadan haydalanish, oilada nosog'lom muhitning mavjudligi, ishidan, yaqin kishidan mahrum bo'lish) o'z navbatida noqonuniy, noaxloqiy pozisiyaning shakllanishiga olib keladi. Ya'ni, turli xil g'ayriqonuniy, noaxloqiy guruhlarga qo'shilish, referent guruhlarning tashkil etilishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan jinoyatchilik kuchasiga kira boshlagan o'smir ko'pincha maktabni tashlaydi, o'zicha ishga kirmoqchi bo'ladi, ko'pchiligi esa umuman foydali mashg'ulot bilan shug'ullanmaydilar.

O'smirlik davrida o'quvchilarda analitik-sintetik faoliyat yetarlicha rivojlanmagani, fikr yuritish usullari to'liq emasligi uchrab turadi. Shuning uchun geometrik masalani yechish usulini yoki isbotlash yo'lini ko'rsatib berilmasa, qiyinchiliklar tug'iladi, o'quvchilar masalani eng oddiy usulda "tavakkaliga yecha boshlaydilar. O'smirlar fikr yuritish faoliyatining xususiyatlaridan biri - yaqqol-obrazli, ko'rsatmali tafakkur tarkibining muhim rol o'ynashidir. Ularda mavhum tafakkur o'sishi bilan yaqqol-obrazli tafakkurining tarkibiy qismi mutlaqo yo'qolib ketmaydi, balki saqlanib qoladi va rivojlanadi hamda tafakkurning umumiy strukturasi muhim rol o'lnaydi. O'smirning eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagi o'quvchidan farqli o'laroq, o'smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi.

O'smir aql-zakovatini kamol toptirish uchun ularga doimo mantiqiy tatakur usullarini o'rgatib borish zarur. Bunda mantiqiy xatolarni tuzatib borishni aslo yoddan chiqarmaslik kepak. O'smir to'g'ri mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda ona tili va adabiyot o'qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o'quvchilarga to'g'ri jumla tuzishni, ravon mulohaza yuritishni, fikrlashni, yozishni o'rgatib boradi.

Venalik psixolog Z. Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan



berigan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeyini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki hudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari mayllari shaxsning faolligini belgilar ekan. Rus psixologlari Z. Freyd nazariyasini mutlaqo asossiz hisoblab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan xarakterlanishini asoslab berdilar.

Amerikalik olim K. Kulon o'smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir. Uning fikricha o'smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy kategoriya mavjud bo'lib, ular:

1. Emansipatsiya (kattalar ta'siridan qutilish);

2. Mustaqillikka erishish;

3. Hayotiy yo'li va kasb- hunar tanlashda jiddiy munosabatda bo'lish, zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir.

Bola yuqoridagi muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlik davri qancha bo'lishidan qat'iy nazar, u bolaligicha qolaveradi. O'smir o'zini nazorat qilmas ekan bu borada to'g'ri yo'ldan adashishi muqarrar bo'lib qoladi.

Tadqiqotimiz natijasiga ko'ra o'rganilgan o'smirlarning aksariyat qismi ijtimoiy foydali mashg'ulotlarda qatnashmaydi, gazeta, jurnal yoki badiiy adabiyotlar o'qimaydilar. O'qiganlarida ham o'ziga xos qiziqishlar (rasmlar, sud materiallari, e'lonlar va boshqalar) bilan cheklanadilar. Ularda teatrqa tushish, darslik va badiiy kitoblar o'qish bo'yicha ko'rsatgich darajasi ancha pastdir.

XULOSA.

Yuqoridagi fikr mulohazalarimizdan ko'rinadiki, ijtimoiy foydali mashg'ulot bilan shug'ullanish, kitob, gazeta o'qish, teatrlarga borish o'smirlarda ijtimoiy foydali, ijobiy pozitsiyalarning va ustanovkalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa bolalar va o'smirlar xulqida salbiy pozitsiya va ustanovkalarining shakllanishiga imkoniyat yaratiladi. Bundan kelib chiqib aytilish mumkinki, ijtimoiy muhit voqea-hodisalari va shart-sharoitlarning o'smirlarga ta'sir etishi ular xulq-atvori mazmunini belgilab beradi. Agarda ijtimoiy muhitdagi voqea-hodisalar va shart-sharoitlar o'smirga ijobiy ta'sir etsa o'smir xulqida ijobiy xislatlar, aksincha holatlarda esa salbiy xislatlar, g'ayriqonuniy ustanovkalar shakllanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

Ганжиев Ф.Ф., Кодирова М.Д. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МУАССАСАСИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИ ИJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. //Педагогик маҳорат. Илмий журнал. – Бухоро. 2020.№2. – Б. 109-111. (19.00.00. №7).

Ганжиев Ф.Ф., Тўлаев Ҳ.О. Researching the scope of the professional competence within activities. //International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor ICV = 6. 630 Philadelphia, USA. 2019. –Б. 388-391.

Ганжиев Ф.Ф., Қосимова С.Б. Heads Of Competence In Psychologically School Education. International journal of scientific & Technology research volume 9, issue. 2020. -Б. 2787-2789.

F.F. Ganjiev. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.

Ф.Ф. Ганжиев. ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЧЕЛОВЕКА В ЭКСТРЕМАЛЬНОЙ СИТУАЦИИ. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.

